O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng o'zining tashqi iqtisodiy siyosatida bosqichma-bosqich islohotlarni amalga oshirib, jahon xo'jalik tizimiga integratsiyalashuv yo'lini tanladi. Ayniqsa, so'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli va tub burilish yasovchi yangilanishlar milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, eksport salohiyatini keskin oshirish va xorijiy investitsiyalar uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratildi. Tashqi savdo rejimining liberallashtirilishi, milliy valyutaning erkin konvertatsiya

qilinishi hamda jahonning yetakchi iqtisodiy va moliya institutlari bilan hamkorlikning yangi bosqichga ko'tarilishi O'zbekistonning global maydondagi mavqeini tubdan o'zgartirdi.

Mamlakatimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada liberallashtirish, eksport-import jarayonlarini raqamlashtirish va xalqaro standartlarni joriy etishga qaratilgan huquqiy asoslar izchil mustahkamlanib bormoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-dekabrdagi "Eksportni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarining Jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiqlashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida"gi PF-228-son[1] Farmoni bu boradagi islohotlarni yangi sifat bosqichiga olib chiqib, milliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish va xalqaro bozorlarga chiqish yo'lidagi huquqiy poydevorni yanada mustahkamladi. Shu bilan birga, zamonaviy xalqaro mehnat taqsimotida an'anaviy xomashyo yetkazib beruvchi davlat maqomidan voz kechib, yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar va intellektual xizmatlar eksport qiluvchi subyektga aylanish O'zbekiston oldida turgan eng muhim strategik vazifalardan biridir. Dunyoning yirik iqtisodiy markazlari Xitoy, Rossiya, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, AQSh, shuningdek, Osiyo-Tinch okeani mintaqasining yetakchi davlatlari bilan o'zaro manfaatli va pragmatik iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish mamlakatimiz iqtisodiy xavfsizligi va barqarorligining kafolati bo'lib xizmat qilmoqda.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga (JST) a'zo bo'lish jarayoni faollashgan, mintaqaviy va transkontinental transport-logistika yo'laklari kengayib borayotgan hozirgi sharoitda mamlakatning global iqtisodiy aloqalari va xalqaro mehnat taqsimotidagi ishtirokini nazariy hamda amaliy jihatdan chuqur tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi O'zbekiston Respublikasining global iqtisodiy aloqalari rivojlanish tendensiyalarini har tomonlama ochib berish, mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotidagi o'zgarib borayotgan ixtisoslashuvini baholash hamda jahonning yirik iqtisodiy markazlari bilan olib borilayotgan strategik iqtisodiy hamkorlikning ustuvor yo'nalishlarini ilmiy jihatdan asoslab berishdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekistonning global iqtisodiy aloqalari, xalqaro mehnat taqsimotidagi ishtiroki, tashqi savdoni liberallashtirish, eksport tarkibini diversifikatsiya qilish va jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi masalalari xorijiy hamda mahalliy iqtisodiy tadqiqotlarda turli nazariy va amaliy yondashuvlar asosida o'rganilgan. Mazkur yo'nalishdagi ilmiy ishlarni shartli ravishda xalqaro savdo va eksport diversifikatsiyasi, O'zbekistonning iqtisodiy islohotlari va JSTga integratsiyasi, shuningdek, global qiymat zanjirlari va transport-logistika aloqalari bo'yicha tadqiqotlarga ajratish mumkin.

Xalqaro savdo va eksport diversifikatsiyasi masalalarini tadqiq etgan Alberto Amurgo-Pacheco va Martha Denisse Pierola Castro rivojlanayotgan mamlakatlarning eksport tarkibini mahsulot va geografik yo'nalishlar bo'yicha o'rgangan. Ularning tadqiqotida eksport o'sishining intensiv va ekstensiv chegaralari tahlil qilinib, mamlakatlarning yangi mahsulotlar va yangi bozorlarni o'zlashtirishi eksport geografiyasi hamda tarkibining shakllanishida muhim omil ekanligi ko'rsatilgan. Mazkur yondashuv O'zbekistonning eksport geografiyasini kengaytirish bilan bir qatorda yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini oshirish masalasini tahlil qilish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Anwesha Aditya va Rajat Acharyya savdo liberallashuvi bilan eksport diversifikatsiyasi o'rtasidagi bog'liqlikni nazariy va empirik jihatdan tadqiq qilgan. Ularning tadqiqotida tariflarning pasaytirilishi eksport savatining tarmoqlararo va tarmoq ichidagi diversifikatsiyasiga ta'sir qilishi mumkinligi asoslangan. Ushbu ilmiy natijalar O'zbekiston tashqi savdo rejimini liberallashtirish va eksport tarkibida yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ulushini oshirish jarayonini baholashda muhim nazariy asos yaratadi.

Eksport tarkibining iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyatini Ricardo Hausmann, Jason Hwang va Dani Rodrik ham chuqur tadqiq etgan. Ularning yondashuvida eksport qilinayotgan mahsulotlarning texnologik va iqtisodiy xususiyatlari mamlakatning keyingi iqtisodiy o'sish imkoniyatlari bilan bog'lanadi. Tadqiqotchilar eksport tarkibining shunchaki hajmi emas, balki uning sifati va yuqori unumdorlikka ega mahsulotlar bilan bog'liqligi iqtisodiy rivojlanish istiqbollarini belgilashda muhim ekanligini ko'rsatadi. Ushbu yondashuv O'zbekistonning xomashyo va yarim tayyor mahsulotlar eksportidan yuqori qo'shilgan qiymatli sanoat mahsulotlari hamda intellektual xizmatlar eksportiga o'tish strategiyasini ilmiy jihatdan asoslash imkonini beradi.

O'zbekistonning tashqi iqtisodiy siyosati va xalqaro iqtisodiy integratsiyasini bevosita o'rgangan iqtisodchi Richard Pomfret tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. Pomfret O'zbekiston iqtisodiy rivojlanish modelining evolyutsiyasi, bozor islohotlari, tashqi savdo siyosati va mamlakatning JSTga qo'shilish jarayonini tahlil qilgan. Uning O'zbekiston va Jahon savdo tashkilotiga bag'ishlangan tadqiqotida mamlakatning JSTga a'zo bo'lish

1 https://lex.uz/uz/docs/-7283095

jarayoni 1994-yildan boshlanganligi, keyinchalik uzoq vaqt sustlashgani va 2016-yildan keyin tashqi iqtisodiy siyosatning ochiqlashuvi bilan qayta faollashgani ko'rsatiladi. Pomfret O'zbekistonning JSTga integratsiyasi iqtisodiy islohotlarning chuqurligi, raqobatbardosh va diversifikatsiyalangan iqtisodiyotni shakllantirish bilan chambarchas bog'liq ekanligini ta'kidlaydi.

Richard Pomfretning Markaziy Osiyo iqtisodiyotlariga bag'ishlangan tadqiqotlarida mintaqa mamlakatlarining tashqi iqtisodiy aloqalari, tashqi kuchlar bilan iqtisodiy munosabatlari, infratuzilma va transport yo'laklarining rivojlanishi hamda xalqaro savdoga integratsiyalashuv imkoniyatlari keng yoritilgan. Olim Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun yangi savdo hamkorlari va transport yo'nalishlarini rivojlantirish iqtisodiy diversifikatsiya va global bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirishi mumkinligini ko'rsatadi.

Pomfretning Markaziy Osiyoda savdo siyosati va mintaqaviy integratsiyaga bag'ishlangan tadqiqotlarida mintaqa davlatlari tomonidan tuzilgan ko'plab savdo kelishuvlarining amaliy ta'siri, mintaqaviy va ko'p tomonlama savdo siyosati o'rtasidagi tanlov hamda JSTga a'zolikning iqtisodiy oqibatlari tahlil qilingan. Mazkur tadqiqot O'zbekistonning JSTga qo'shilish jarayonini faqat savdo hajmini oshirish nuqtayi nazaridan emas, balki mamlakatning xalqaro savdo qoidalariga moslashuvi va mintaqaviy iqtisodiy aloqalarini rivojlantirish nuqtayi nazaridan baholash zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekiston iqtisodiyotining resurslarga bog'liqligi va tarkibiy islohotlar masalasida Richard M. Auty tadqiqotlari ham muhim ilmiy asoslardan biridir. Auty Qozog'iston va O'zbekiston misolida tabiiy resurslarning iqtisodiy islohotlar jarayoniga ta'sirini o'rgangan. Tadqiqotda resurslarga boy o'tish iqtisodiyotlarida islohotlarning kechikishi va iqtisodiy siyosatdagi ayrim institutsional muammolar uzoq muddatli rivojlanishga ta'sir qilishi mumkinligi ko'rsatilgan. Ushbu ilmiy yondashuv O'zbekistonning xomashyo eksportiga tayanishni kamaytirish va ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish zaruratini nazariy jihatdan tushuntirishga yordam beradi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar O'zbekistonning global iqtisodiy aloqalarini rivojlantirish masalasini bir nechta o'zaro bog'liq yo'nalishlarda o'rganib kelayotganini ko'rsatadi. Bir tomondan, savdo liberallashuvi va eksport diversifikatsiyasi mamlakatning tashqi bozorlardagi imkoniyatlarini kengaytiruvchi omil sifatida qaraladi. Ikkinchi tomondan, O'zbekistonning JSTga integratsiyasi, iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi va tashqi savdo siyosatining ochiqlashuvi xalqaro iqtisodiy munosabatlarning institutsional asoslarini mustahkamlash bilan bog'lanadi. Uchinchi tomondan, transport-logistika infratuzilmasi, global qiymat zanjirlariga ulanish va yuqori qo'shilgan qiymatli ishlab chiqarishni rivojlantirish mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotidagi mavqeini mustahkamlashning muhim shartlari sifatida namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarning aksariyati O'zbekistonning tashqi savdosi, JSTga a'zo bo'lish jarayoni yoki alohida iqtisodiy islohotlarni mustaqil yo'nalishlarda o'rgangan. O'zbekistonning global iqtisodiy aloqalari, xalqaro mehnat taqsimotidagi ixtisoslashuvi, yirik iqtisodiy markazlar bilan strategik hamkorligi, eksport diversifikatsiyasi, investitsiya va transport-logistika imkoniyatlarini yagona tizim sifatida kompleks baholashga qaratilgan tadqiqotlarga ehtiyoj saqlanib qolmoqda. Mazkur maqola aynan ushbu ilmiy-amaliy jihatni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, O'zbekistonning global iqtisodiy makondagi mavqeini savdo, investitsiya, logistika, texnologiya va xalqaro hamkorlikning o'zaro bog'liqligi asosida baholashga e'tibor qaratadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani yozish va ilmiy jihatdan asoslash jarayonida zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarning umumiy va maxsus usullaridan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi O'zbekiston Respublikasining global iqtisodiy aloqalari, xalqaro mehnat taqsimotidagi ishtiroki hamda yirik davlatlar bilan iqtisodiy munosabatlarini har tomonlama va xolisona ochib berishga qaratilgan bo'lib, quyidagi usullarni o'z ichiga oladi: Tizimli yondashuv usuli: O'zbekiston milliy iqtisodiyotining global xo'jalik tizimi bilan o'zaro bog'liqligini yaxlit tizim sifatida o'rganishda qo'llanildi. Bu tashqi savdo, investitsiyalar, transport-logistika va xalqaro tashkilotlar bilan integratsiya jarayonlarini bir-biriga uzviy holda tahlil qilish imkonini berdi.

Qiyosiy tahlil: Mamlakatimizning an'anaviy xomashyo yetkazib beruvchi davlat maqomidan yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar va intellektual xizmatlar eksport qiluvchi subyektga aylanish jarayonidagi o'zgarishlarni bosqichma-bosqich qiyoslab o'rganishda foydalanildi. Statistik va iqtisodiy tahlil usullari: Tashqi savdo hajmlari, eksport-import geografiyasining kengayishi, shuningdek, jahonning yirik iqtisodiy markazlari bilan amalga oshirilayotgan iqtisodiy hamkorlik ko'rsatkichlarini baholashda qo'llanildi.

Mantiqiy va empirik umumlashtirish usuli: Mavjud ilmiy adabiyotlar, statistik ma'lumotlar hamda O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyatiga oid qonunchilik hujjatlari va Prezident farmonlari mazmunini mantiqiy ketma-ketlikda umumlashtirib, ilmiy xulosalar chiqarishda foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon iqtisodiyotining rivojlanishi mamlakatlar oʻrtasidagi iqtisodiy aloqalarning tobora chuqurlashib borishi bilan tavsiflanadi. Globallashuv jarayoni natijasida davlatlar oʻzaro savdo, investitsiya, moliya, transport, innovatsiya va texnologiyalar almashinuvi orqali yagona iqtisodiy makonning muhim ishtirokchilariga aylanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, global iqtisodiy aloqalar mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyoti, ishlab chiqarish samaradorligi va xalqaro raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Global iqtisodiy aloqalar deganda davlatlar oʻrtasida tovar va xizmatlar ayirboshlash, kapital va investitsiyalar harakati, ilmiy-texnikaviy hamkorlik, mehnat resurslari migratsiyasi hamda xalqaro moliyaviy munosabatlarning uzviy tizimi tushuniladi. Ushbu munosabatlar xalqaro mehnat taqsimoti asosida shakllanib, har bir mamlakatning tabiiy resurslari, iqtisodiy salohiyati, geografik joylashuvi va ishlab chiqarish imkoniyatlaridan samarali foydalanishga xizmat qiladi.

Natijada davlatlar oʻzlarining ustunlikka ega boʻlgan sohalarini rivojlantirib, jahon bozorida raqobatbardosh mahsulot va xizmatlarni taklif etish imkoniyatiga ega boʻladilar. Oʻzbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan buyon ochiqlik va milliy manfaatlarga asoslangan tashqi iqtisodiy siyosatni izchil amalga oshirib kelmoqda. Mamlakatning qulay geostrategik joylashuvi, boy tabiiy resurslari, rivojlanib borayotgan sanoat tarmoqlari hamda salmoqli mehnat resurslari uning xalqaro iqtisodiy aloqalardagi ahamiyatini oshirmoqda.

Zamonaviy bosqichda iqtisodiyotni liberallashtirish, valyuta bozorini erkinlashtirish, investitsiya muhitini yaxshilash va tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash borasidagi islohotlar xorijiy investorlar ishonchini mustahkamlab, tashqi iqtisodiy faoliyat koʻlamining kengayishiga xizmat qilmoqda.

Oʻzbekistonning xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi ham global iqtisodiy aloqalarning muhim yoʻnalishlaridan biridir. Mamlakat Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamgʻarmasi, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligi va Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti kabi nufuzli xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan faol hamkorlik qilmoqda. Mazkur hamkorlik investitsiyalarni jalb etish, infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish, tashqi savdo hajmini kengaytirish hamda mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini taʼminlashda muhim ahamiyatga ega.

Oʻzbekiston tashqi iqtisodiy siyosatining muhim yoʻnalishlaridan biri eksport salohiyatini oshirish hisoblanadi. Soʻnggi davr mobaynida mamlakatda eksport tarkibini kengaytirish boʻyicha amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida faqat xomashyo eksportiga tayanishdan bosqichma-bosqich voz kechilib, qayta ishlangan sanoat mahsulotlari, elektrotexnika buyumlari, qurilish materiallari, kimyo mahsulotlari, qishloq xoʻjaligi mahsulotlari hamda xizmatlar eksportining ahamiyati ortib bormoqda.

Oʻzbekiston va Xitoy oʻrtasidagi iqtisodiy hamkorlikning ustuvor yoʻnalishlaridan biri energetika sohasi hisoblanadi. Soʻnggi yillarda mazkur yoʻnalishdagi hamkorlik yangi bosqichga koʻtarilib, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hamda energetika infratuzilmasini modernizatsiya qilishga qaratilgan yirik loyihalar amalga oshirilmoqda.

Xususan, 2026-yil 17-iyun kuni Toshkent xalqaro investitsiya forumi doirasida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Xitoy Xalq Respublikasi Milliy energetika boshqarmasi rahbari Van Xunchji boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi. Muzokaralar davomida energetika sohasidagi strategik sheriklikni yanada rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish hamda ilgʻor texnologiyalarni jalb etish masalalari muhokama qilindi.[2]

Shuningdek, Xitoy kompaniyalari ishtirokida quyosh va shamol elektr stansiyalarini barpo etish, elektr uzatish tarmoqlarini modernizatsiya qilish hamda energiyani saqlash texnologiyalarini joriy etishga qaratilgan istiqbolli loyihalar koʻrib chiqildi. Mazkur tashabbuslar Oʻzbekistonning 2030-yilgacha moʻljallangan «yashil iqtisodiyot»ni rivojlantirish strategiyasi bilan uygʻun boʻlib, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining elektr energiyasi ishlab chiqarishdagi ulushini oshirishga xizmat qiladi.

Energetika sohasidagi ushbu hamkorlik nafaqat mamlakatning energiya xavfsizligini mustahkamlash va ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga, balki zamonaviy texnologiyalar transferini jadallashtirish, ekologik barqaror rivojlanishni taʼminlash hamda Oʻzbekistonning xalqaro iqtisodiy aloqalarini yanada mustahkamlashga ham muhim hissa qoʻshmoqda. Shu jihatdan Oʻzbekiston–Xitoy energetika sohasidagi sheriklik ikki davlat oʻrtasidagi strategik hamkorlikning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon boʻlmoqda. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish borasida ham muayyan vazifalar mavjud.

Shuningdek, transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish Oʻzbekistonning xalqaro iqtisodiy aloqalarini kengaytirishning muhim shartlaridan biridir. Mamlakatning Markaziy Osiyodagi geostrategik joylashuvi uni yirik tranzit markaziga aylantirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Shu bois yangi temir yoʻl va avtomobil yoʻllarini qurish, multimodal logistika markazlarini tashkil etish hamda xalqaro transport koridorlarini rivojlantirish tashqi savdo hajmining ortishiga ijobiy taʼsir koʻrsatadi.

2 https://energyforum.uz/

Kelgusida raqamli iqtisodiyot, «yashil» energetika, elektron tijorat va innovatsion texnologiyalarni joriy etish O‘zbekiston iqtisodiyotining xalqaro raqobatbardoshligini yanada oshiradi. Bundan tashqari, Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lish jarayonining muvaffaqiyatli yakunlanishi mamlakatning jahon bozoriga integratsiyasini chuqurlashtirish, eksport imkoniyatlarini kengaytirish va xorijiy investorlar ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasi global iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, xalqaro mehnat taqsimotidagi ishtirokini kengaytirish hamda dunyoning yetakchi davlatlari bilan o‘zaro manfaatli iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash borasida sezilarli yutuqlarga erishmoqda. Mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, investitsiya muhitining yaxshilanishi, tashqi savdoni liberallashtirish hamda eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy siyosati va global bozorlarga integratsiyalashuvi jarayoni olib borilgan tahlillar natijasida bir qator muhim iqtisodiy natijalarni yuzaga chiqardi. Mamlakatimizning so‘nggi yillardagi global iqtisodiy aloqalari, xalqaro mehnat taqsimotidagi ishtiroki va yirik davlatlar bilan hamkorligi quyidagi asosiy xulosalar va ko‘rsatkichlar orqali namoyon bo‘lmoqda:

Tashqi savdo hajmida sifat o‘zgarishlari: O‘zbekistonning tashqi savdo aylanmasi sezilarli darajada kengayib, eksport geografiyasi dunyoning yuzdan ortiq davlatlarini qamrab oldi. Tashqi savdo rejimining liberallashtirilishi va bojxona tartib-taomillarining soddalashtirilishi milliy tadbirkorlarning tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini keskin oshirdi. Eksport tarkibining diversifikatsiyasi: Xalqaro mehnat taqsimotida mamlakatimizning o‘rni tubdan o‘zgardi. Ilgari xomashyo va yarim tayyor mahsulotlar ustun bo‘lgan eksport tarkibida bugungi kunda yuqori qo‘shilgan qiymatga ega tayyor sanoat mahsulotlari, to‘qimachilik, elektrotexnika, avtomobilsozlik tovarlari hamda IT-xizmatlar ulushi sezilarli darajada ortdi. Bu esa milliy iqtisodiyotning tashqi shoklarga chidamliligini ta’minlamoqda. Jahon savdo tashkiloti bilan integratsiyaning faollashuvi: O‘zbekistonning JSTga a’zo bo‘lish yo‘lidagi amaliy muzokaralari va qonunchilikni xalqaro savdo qoidalariga moslashtirish bo‘yicha amalga oshirgan islohotlari xalqaro hamjamiyat tomonidan ijobiy baholanmoqda. Xususan, eksportni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining xalqaro bitimlarga muvofiqlashtirilishi investorlar uchun ochiq va shaffof muhit yaratdi. Yirik davlatlar bilan strategik muvozanat: Xitoy, Rossiya, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, AQSh va Osiyo-Tinch okeani mintaqasining yetakchi davlatlari bilan olib borilayotgan pragmatik hamkorlik natijasida o‘nlab yirik investitsiyaviy loyihalar hayotga tatbiq etildi. «Bir makon, bir yo‘l» tashabbusi va GSP+ kabi imtiyozli savdo tizimlaridan samarali foydalanilishi natijasida sanoat, yashil energetika va transport-logistika tarmoqlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimi ko‘paydi.

Transport-logistika salohiyatining oshishi: O‘zbekistonning transkontinental yo‘laklar kesishmasidagi muhim transport xabiga aylanishi xalqaro yuk tashish vaqtini qisqartirib, mamlakatning tranzit salohiyatidan kelib chiqadigan iqtisodiy manfaatlarni yanada oshirdi. Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonning global iqtisodiy aloqalarni kengaytirish bo‘yicha tanlagan strategik yo‘li o‘zining yuqori samaradorligini ko‘rsatib, mamlakatimizning xalqaro miqyosdagi raqobatbardoshligini ta’minlashda asosiy omil bo‘lib xizmat qilmoqda.




**1-rasm. O‘zbekistonning global iqtisodiy aloqalarini rivojlantirish yo‘nalishlari[3]**

3 Eksport, Investitsiya, Logistika, Texnologiya, Yashil energetika, Raqamli iqtisodiyot asosida mualliflik ishini boyitish uchun maxsus tayyorlangan diagramma hisoblanadi.

Taqdim etilgan diagrammada O‘zbekiston Respublikasining global iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishdagi ustuvor yo‘nalishlarining shartli strategik indeks ko‘rsatkichlari aks ettirilgan. Ushbu tahlil mamlakat tashqi iqtisodiy siyosatining ustuvor ustunlarini yaqqol namoyon etadi. Eksport (100 ball): Eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lib, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish va tashqi valyuta tushumlarini ta’minlashda tashqi savdo hamda eksport salohiyatini oshirish asosiy drayver ekanligini ko‘rsatadi. Investitsiya (95 ball): Ikkinchi o‘rinda turishi mamlakatimizda xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb qilish, sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish uchun qulay muhit yaratish davlat siyosatining markazida ekanligini bildiradi. Logistika va Texnologiya (har biri 90 ball): O‘zbekistonning transkontinental transport yo‘laklarini rivojlantirish orqali mintaqaviy xabga aylanishi hamda ishlab chiqarish jarayonlariga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish birdek muhim strategik ahamiyat kasb etishini anglatadi. Yashil energetika (85 ball): Global iqlim o‘zgarishlari va barqaror taraqqiyot talablaridan kelib chiqqan holda, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish hamda «yashil iqtisodiyot»ga o‘tish borasidagi islohotlar izchil davom etayotganini ko‘rsatadi.

Raqamli iqtisodiyot (80 ball): IT-xizmatlar eksportini kengaytirish, davlat boshqaruvi va iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirish jarayonlari jadal rivojlanish bosqichida ekanligini tasdiqlaydi. Diagramma tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonning global iqtisodiy makonga integratsiyalashuvi faqatgina xomashyo yoki an’anaviy savdo bilan cheklanib qolmay, balki investitsiyalar, ilg‘or texnologiyalar, yashil energetika va raqamli transformatsiyani qamrab olgan keng qamrovli strategik xarakterga ega (2-rasm).




**2-rasm. Global iqtisodiy integratsiya jarayonidagi asosiy muammolar[4]**

Taqdim etilgan diagrammada O‘zbekiston va milliy iqtisodiyotning global bozorlarga integratsiyalashuvi jarayonida duch kelinayotgan asosiy muammolar hamda xatarlarning shartli ustuvorlik indeksi raqamlar asosida aks ettirilgan. Ushbu tahlil tashqi iqtisodiy faoliyatdagi mavjud to‘siqlarni yaqqol ko‘rsatib beradi. Jahon bozori narxlari (95 ball): Eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lib, xalqaro bozorlardagi narxlarning keskin tebranishlari va beqarorligi milliy iqtisodiyot va eksportchilar uchun eng asosiy xatarlardan biri ekanligini bildiradi.

Geosiyosiy xatarlar (90 ball): Ikkinchi o‘rinda turishi xalqaro miqyosdagi geosiyosiy ziddiyatlar, savdo cheklovlari va logistika zanjirlarining uzilishi global integratsiyaga jiddiy ta’sir ko‘rsatayotganini tasdiqlaydi. Logistika xarajatlari (88 ball): O‘zbekistonning dengiz portlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqish imkoniyati cheklanganligi sababli, transport-tranzit va xalqaro logistika xarajatlarining yuqoriligi mahsulotlar tannarxiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini anglatadi. Xomashyo eksporti (85 ball): Milliy iqtisodiyotda xomashyo va yarim tayyor mahsulotlar ulushining saqlanib qolayotgani hamda uni chuqur qayta ishlash darajasini yanada oshirish zarurligini ko‘rsatadi.

Investitsiya muhiti (78 ball): Eng muhim ko‘rsatkichlardan biriga ega bo‘lib, xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb qilishda qulay imkoniyatlar, infratuzilma va moliyaviy mexanizmlarni yanada takomillashtirish muhim yo‘nalish ekanligini bildiradi. Diagrammadagi raqamli ko‘rsatkichlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, global iqtisodiy

4 (Jahon bozori narxlari, Geosiyosiy xataralar, Logistika xarajatlari, Xomashyo eksporti, Investitsiya muhiti) tahlili asosida mualliflik ishini boyitish uchun maxsus tayyorlangan diagramma hisoblanadi.

integratsiyani chuqurlashtirish uchun tashqi narxlardan samarali foydalanish va geosiyosiy imkoniyatlarni kengaytirish, logistika samaradorligini oshirish hamda xomashyoni chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlarga o‘tish jarayonini jadallashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekiston Respublikasining global iqtisodiy aloqalari, xalqaro mehnat taqsimotidagi ishtiroki hamda yirik davlatlar bilan olib borilayotgan iqtisodiy munosabatlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, mamlakatimiz tashqi iqtisodiy siyosatida sifat jihatidan mutlaqo yangi bosqichga ko‘tarildi. Olib borilgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida O‘zbekiston yakkaxo‘jalik tizimidan ochiq, ko‘p vektorli va global bozorlarga faol integratsiyalashayotgan milliy iqtisodiyotga ega davlatga aylanib bormoqda.

O‘zbekistonning dunyo mamlakatlari bilan yo‘lga qo‘ygan iqtisodiy hamkorligi nafaqat savdo hajmini oshirish, balki zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, investitsiyalarni jalb qilish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilishda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xalqaro mehnat taqsimotida O‘zbekistonning o‘rnini mustahkamlash uchun mamlakatning mavjud tabiiy, mehnat va geografik ustunliklari bilan bir qatorda texnologik va intellektual salohiyatini rivojlantirish zarur. Buning uchun, avvalo, eksport tarkibini yanada diversifikatsiya qilish, xomashyo eksportidan yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar eksportiga bosqichma-bosqich o‘tish, sanoatni modernizatsiya qilish va innovatsion ishlab chiqarishlarni rivojlantirish muhim. Shuningdek, xorijiy investitsiyalarni jalb etishda investorlar uchun barqaror va prognoz qilinadigan huquqiy muhit yaratish, ma’muriy to‘siqlarni kamaytirish, davlat xizmatlarini raqamlashtirish va malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish lozim. Shuningdek, raqamli iqtisodiyot, elektron tijorat, innovatsion texnologiyalar va «yashil» energetikani rivojlantirish O‘zbekistonning xalqaro iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirishning yangi omillaridan biri bo‘lib xizmat qiladi. Jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan o‘zgarishlar O‘zbekistondan iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, eksport tarkibini takomillashtirish, transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish hamda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish bo‘yicha izchil siyosat yuritishni talab etadi.

Mazkur vazifalarning samarali amalga oshirilishi mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotidagi mavqeini yanada mustahkamlaydi va global iqtisodiy makondagi raqobatbardoshligini oshiradi. O‘zbekiston Respublikasining ochiq va pragmatik tashqi iqtisodiy siyosati, xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan islohotlari hamda jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv jarayonlari kelgusida mamlakatning barqaror iqtisodiy o‘sishini ta’minlash, xalq farovonligini oshirish va milliy iqtisodiyotning xalqaro maydondagi nufuzini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi xulosalarga kelindi:

Birinchidan, tashqi savdo siyosatining liberallashtirilishi, bojxona tartib-taomillarining soddalashtirilishi va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikning faollashuvi mamlakatning investitsion jozibadorligini keskin oshirdi.

Ikkinchidan, xalqaro mehnat taqsimotida an’anaviy xomashyo yetkazib beruvchi davlat maqomidan bosqichma-bosqich voz kechilib, yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor sanoat mahsulotlari, to‘qimachilik, elektrotexnika, avtomobilsozlik tovarlari hamda intellektual xizmatlar (IT-eksport) eksport qiluvchi subyektga aylanish jarayoni muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Uchinchidan, dunyoning yirik iqtisodiy markazlari bilan pragmatik va o‘zaro manfaatli munosabatlarning yo‘lga qo‘yilishi, jumladan, Xitoyning investitsiyaviy loyihalari, Rossiya bilan hududlararo va energetika hamkorligi, Yevropa Ittifoqining GSP+ preferensiyalar tizimidan samarali foydalanish hamda rivojlangan davlatlar bilan yuqori texnologiyalar sohasidagi sheriklik iqtisodiy barqarorlikni ta’minlamoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, O‘zbekistonning global iqtisodiy aloqalarini yanada rivojlantirish va xalqaro mehnat taqsimotidagi o‘rnini mustahkamlash yuzasidan quyidagi takliflar tavsiya etiladi:

Eksport nomenklaturasini diversifikatsiya qilishni davom ettirish: Xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori texnologiyali va innovatsion mahsulotlar ulushini oshirish, shuningdek, xizmatlar va dasturiy ta’minot eksportini yanada kengaytirish uchun qo‘shimcha rag‘batlantirish mexanizmlarini joriy etish.

JST talablariga to‘laqonli moslashishni jadallashtirish: Milliy qonunchilikni Jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiqlashtirish jarayonlarini mantiqiy yakuniga yetkazish hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilarning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini kuchaytirishga qaratilgan davlat ko‘mak dasturlarini xalqaro savdo qoidalariga mos holda takomillashtirish.

Transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish: Transkontinental temir yo‘l va avtomagistral loyihalarini (jumladan, Xitoy–Qirg‘iziston–O‘zbekiston va Trans-Afg‘on yo‘laklarini) tezroq ishga tushirish orqali mamlakatimizni Yevropa va Osiyoni bog‘lovchi asosiy mintaqaviy transport-logistika xabiga aylantirish jarayonini tezlashtirish.

Infratuzilma va yashil energetika loyihalariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish: Yirik davlatlar va xalqaro moliya institutlari bilan «yashil iqtisodiyot», raqamlashtirish hamda zamonaviy yuqori texnologiyali sanoat tarmoqlarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish uchun yanada qulay va shaffof muhitni yaratish.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO‘YXATI:


1. O‘zbekiston Respublikasining 2000-yil 26-maydagi “O‘zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyati to‘g‘risida”gi 77-II-son Qonuni // URL: https://lex.uz/docs/-67345
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.06.2024-yildagi “Bozor islohotlarini yanada jadallashtirish va O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligini Jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiqlashtirish bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-85-son Farmoni // URL: https://lex.uz/ru/docs/-6949734
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.12.2024-yildagi “Eksportni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlarining Jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiqlashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish, shuningdek, ba’zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida”gi PF-228-son Farmoni // URL: https://lex.uz/uz/docs/-7283095
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni // URL: https://lex.uz/ru/docs/-5841063
5. Xudoyberdiyev F.I. “O‘zbekistonda eksport-import siyosatining takomillashtirilishi va tashqi savdo balansi”. “Women in STEM” ilmiy to‘plami, 2026.
6. Pomfret, R. Uzbekistan and the World Trade Organization. Silk Road: A Journal of Eurasian Development, 2020, Vol. 2, No. 1, pp. 54–61. DOI: 10.16997/srjed.35.
7. Pomfret, R. The Central Asian Economies in the Twenty-First Century: Paving a New Silk Road. Princeton University Press, 2019.
8. Pomfret, R. Trade policies in Central Asia after EU enlargement and before Russian WTO accession: Regionalism and integration into the world economy. Economic Systems, Vol. 29, No. 1, pp. 32–58.
9. Pomfret, R. Cooperation in Trade. In: Central Asia in a Multipolar World: Internal Change, External Actors, Regional Cooperation. Springer, 2024, pp. 417–430. DOI: 10.1007/978-3-031-63727-8_24.
10. Auty, R. M. Reforming Resource-Abundant Transition Economies: Kazakhstan and Uzbekistan. In: Resource Abundance and Economic Development. Oxford University Press, 2004, pp. 260–276. DOI: 10.1093/0199275785.003.0016.
11. Amurgo-Pacheco, A., Pierola Castro, M. D. Patterns of Export Diversification in Developing Countries: Intensive and Extensive Margins. World Bank Policy Research Working Paper No. 4473, 2008.
12. Aditya, A., Acharyya, R. Trade Liberalization and Export Diversification. International Review of Economics & Finance, Vol. 39, 2015, pp. 390–410. DOI: 10.1016/j.iref.2015.07.007.

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV
**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV
**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

**2026. № 5 (3)**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz